



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025  
1-сон



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров  
PhD, доцент И.М.Пардаева  
А.Х.Мингбоев

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

<b>Наргиза Музафаровна Бабаева</b> Жаҳон лизинг хизматлари бозорининг ҳолати таҳлили ва ўзбекистонда унинг ривожланиш тенденциялари.	70
<b>Рамз Зоиржон ўғли Мухаммадиев</b> Тиббий хизмат сифатини яхшилашда юқори технологиялар ўрни.	77
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Гульнара Мардиевна Шадиева, Бону Бахтиёрвна Давронова</b> Туризм в Узбекистане: драйвер экономического роста и социальной стабильности	80
<b>Maksuda Valeriyevna Israilova</b> Sog'lomlashtirish turizmining mohiyati va rivojlanish tarixi.	84
<b>Dilshod Usmanovich Ruzmanov</b> Turizmда madaniy-tarixiy resurslar salohiyatidan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish	90
<b>Nargiza Akbardjonovna Abduvaxidova</b> Barqaror turizm rivojlanishida muammo va imkoniyatlar	94
<b>Фарход Абдихидович Бекназаров, Азиза Пирмаматовна Махмудова</b> Мамлакатимиз экотизими ва маданий меросини комплекс сақлаш ҳамда минтақада экотуризмни ривожлантиришда геопапркларнинг ўрни	99
<b>Aziza Javaxirovna Mir-Djafarova</b> Iqtisodiyotni raqamlashtirishda turizm va mehmonxona xizmatlarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	103
<b>Камилла Бахромовна Суюнова, Олтинбек Бобирович Умаров</b> Роль маркетинговых стратегий в развитии цифровизации сферы туризма в Узбекистане	108
<b>Rayhona Sadriddinovna Amriddinova, Sitara Otabekovna Xamroyeva</b> Jismoniy imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan insonlar turizmini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati	111
<b>Parvina Asliddin qizi Xolmatova</b> Hududlarda ekoturizmni tashkil etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi	114
<b>Xasan Ibragimovich Turdibekov</b> O'zbekiston sharoitida overturizmni baholash uslubiyatini takomillashtirish	118
<b>Aziza Yusufbekovna Talibova</b> O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida ekskursiya xizmatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari	122
<b>Нодир Нозимович Негматов</b> Роль визуальных и культурных стимулов Узбекистана в формировании лояльности туристов: нейромаркетинговый подход.	127
<b>Nodirjon Abduxalil o'g'li Xoliqov, Ibragim Xudayarovich Nimatov</b> O'zbekiston Respublikasi turistik salohiyati: tahlillar va istiqbollar	132
<b>Азиза Пирмаматовна Махмудова, Ситора Отабековна Ҳамраева</b> Мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришда Big Data технологияларидан фойдаланиш йўллари	138
<b>МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ</b>	
<b>Nigina Marupovna Usmanova, Mavluda Shuxratjon qizi Nishonova</b> Qarorlar qabul qilish jarayonini tahlil qilish va korxonada boshqaruvni takomillashtirish yo'llari	140
<b>Gulshan Akmalovna Abduvohidova</b> Tashkilot intellektual resurslarini boshqarish tamoyillari	145

Yuqoridagi tavsiyalarning amalga oshirilishi O‘zbekistonda ekoturizmning barqaror rivojlanishiga, uning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga va pirovard natijada mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuviga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni. 2024-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining "Turizm to‘g‘risida"gi Qonuni. 2023-yil.
3. Abduvaliyev, B. (2023). O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning huquqiy jihatlari. Iqtisodiyot va ta'lim, 5(2), 45-52.
4. Johnson, M. (2023). Sustainable financing mechanisms for ecotourism development. International Journal of Tourism Research, 25(3), 234-245.
5. Каримов, А.А. (2024). Экотуризм кластерларини ривожлантириш истиқболлари. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 3(1), 89-97.
6. Mirzaxmedova N. (2020) O‘zbekiston Respublikasi turizm sanoatining iqtisodiy rivojlanishiga ekoturizmning ta’siri. O‘zbekisto milliy universiteti ilmiy jurnali,4(1), 67-68.
7. Петров, В.В. (2023). Механизмы финансирования экологического туризма. Экономика и управление, 8(4), 78-85.
8. UNWTO (2023). World Tourism Barometer. Madrid: World Tourism Organization.
9. Williams, P. (2024). Socio-economic impacts of ecotourism development. Journal of Sustainable Tourism, 32(1), 112-125.

<p><b>П.Холматова</b></p> <p><b>Организационно-экономический механизм организации и развития экотуризма в регионах</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В данной статье рассмотрены организационно-экономические механизмы развития и организации экотуризма в регионах. На основе мирового опыта проанализированы возможности развития экотуризма в Узбекистане, существующие проблемы и их решения. В статье рассмотрены современные механизмы, финансовые инструменты и правовые основы развития экотуризма.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> экотуризм, организационно-экономический механизм, экономический рост, устойчивое развитие, нормативно-правовые документы, туристские ресурсы, охрана окружающей среды, уровень занятости.</p>	<p><b>P.Kholmatova</b></p> <p><b>Organizational and economic mechanism of organization and development of ecotourism in the regions</b></p> <p><b>Abstract.</b> This article explores the organizational and economic mechanisms for the development and organization of ecotourism in the regions. Based on the world experience, the possibilities of developing ecotourism in Uzbekistan, the existing problems and their solutions have been analyzed. The article examines the modern mechanisms, financial instruments and legal framework for the development of ecotourism.</p> <p><b>Keywords:</b> ecotourism, organizational-economic mechanism, economic growth, sustainable development, regulatory and legal documents, tourist resources, environmental protection, employment level.</p>
---	---

**Xasan Ibragimovich Turdibekov** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali dotsenti, i.f.n.

**O‘ZBEKISTON SHAROITIDA OVERTURIZMNI BAHOLASH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida turizm oqimlarining ortiqcha yuklanishi – overturizm tushunchasining nazariy asoslari va jahon tajribasi tahlil qilingan. Ishda O‘zbekistonda turizm sohasida so‘nggi yillarda kuzatilgan keskin o‘shish sharoitida, ayniqsa Samarqand shahri misolida, turizm yo‘nalishlarining me‘yoriy sig‘imi va mahalliy aholi hamda sayyohlar ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanatni baholash uchun ko‘rsatkichlar tizimi taklif etiladi. Tadqiqot doirasida overturizm indeksini hisoblash formulasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u turistik zichlik hamda turistlar va aholi nuqtai nazaridan qoniqish ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi.

**Kalit so‘zlar:** overturizm, sayyohlik sig‘imi, turizm indeksi, turistik infratuzilma, turistlar zichligi, turizmni boshqarish, barqaror turizm

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi turizm sohasida jadal rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda. So‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar natijasida mamlakatga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar soni keskin oshdi. Xususan, 2017 yilda 2,7 mln xorijiy sayyoh kelgan bo‘lsa, 2019 yilda bu ko‘rsatkich 6,7 mln ga yetdi va pandemiyadan so‘ng 2023 yilda 6,6 mlnga qayta tiklandi [1]. Turizmning bunday o‘sishi milliy iqtisodiyotga ijobiy hissa qo‘shadi – yangi ish o‘rinlari yaratiladi, xizmatlar eksporti ortmoqda, madaniy meros ob‘ektlarini saqlashga mablag‘ ajratiladi. Biroq, turizm oqimlarining nomutanosib taqsimlanishi va haddan tashqari ziyoda turistlar yig‘ilishi fenomeni, ya‘ni “overturizm” yana bir jiddiy muammo sifatida ko‘ndalang bo‘lmoqda. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) overturizmni shunday ta‘riflaydi: «muayyan manzilga tashriflar shu darajada ortib ketadiki, natijada mahalliy aholi uchun hayot sifati pasayadi va sayyohlarning tashrifdan qoniqishi ham sezilarli ravishda kamayadi» [2]. Overturizm atamasi ilk bor 2016 yilda Skift tomonidan ommaga olib chiqilgan bo‘lib, 2017 yilga kelib Yevropaning ayrim shaharlarida (Barselona, Venesiya va h.k.) ommaviy norozilik namoyishlari bilan bog‘langan [3]. Bu esa turizmni boshqarishda sig‘im imkoniyatlari va me‘yorlarini aniqlash zaruriyatini ko‘rsatadi. O‘zbekiston shart-sharoitlarida ham turizm oqimlari asosan tarixiy shaharlarga (Samarqand, Buxoro, Xiva) to‘planishi kuzatiladi. Samarqand shahri 2022–2023 yillarda yirik sayyohlik markazi “Silk Road Samarkand” qurilishi orqali o‘ziga jalb etish salohiyatini yanada oshirdi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Overturizm mavzusi xalqaro akademik doiralarda so‘nggi yillarda keng muhokama qilina boshlandi. 2018–2019 yillarda overturizmga bag‘ishlangan maqolalar soni keskin o‘sdi, bu esa muammoning dolzarbligini bildiradi [4]. Koens va hammualliflar overturizm atamasining turizmga ta‘sirini o‘rganib, uning mohiyatini shahar sharoitida talqin qildilar [5]. Mualliflar fikricha, ba‘zi hollarda “overturizm” atamasi haddan tashqari ko‘p qo‘llanilsa-da, haqiqiy muammo – turizm oqimlarining noto‘g‘ri boshqarilishi oqibatida mahalliy aholi manfaatlariga ziyon yetishi. Boshqa tadqiqotchilar ham overturizmni turizmning barqarorlik tamoyillaridan chekinishi sifatida baholaydilar [6]. Jahon turizm tashkiloti va Butunjahon turizm va sayyohlik kengashi 2017 yili chiqargan hisobotida ommabop turizm yo‘nalishlarida yuzaga kelayotgan gavjumlikni boshqarish bo‘yicha tavsiyalar bergan [9]. Unda sayyohlik oqimlarini vaqt va makonda boshqarish, narx-navo vositasida tartibga solish, infratuzilmani muvofiqlashtirish kabi yondashuvlar taklif etilgan. Overturizmni o‘lchash masalasi ham tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Masalan, 2019 yili Lyusern amaliyot instituti tomonidan 50 dan ortiq ko‘rsatkichlardan iborat indekslar tizimi taklif qilingan [7]. Shuningdek, 2021 yili ispaniyalik olimlar E. M. Buitrago va R. Yñiguez overturizmni baholash bo‘yicha bir necha usullarni tadqiq qilib, ularni kompleks qo‘llash zarurligini qayd etdilar [4]. Ularning tahliliga ko‘ra, overturizmni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchash uchun ham miqdoriy (statistik) ko‘rsatkichlar, ham sifatiy usullar (so‘rovnomalar, intervyular, ijtimoiy tarmoq ma‘lumotlari)ni birlashtirishi zarur. Xulosa qilib aytganda, ilmiy adabiyotlarda overturizmni aniqlash uchun yakka ko‘rsatkich yoki formula emas, balki ko‘rsatkichlar majmuasi tavsiya etiladi. Bu ko‘rsatkichlar turistik zichlik, vaqt va makon bo‘yicha konsentratsiya, turizmning mahalliy aholi turmush darajasiga ta‘siri kabi jihatlarni qamrab oladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Overturizm holatlarini aniqlash va tahlil qilish jarayonida ta‘sir qiluvchi omillar va ularning darajasini baholashda induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, mantiqiy yondashuv, guruhlash hamda qiyosiy tahlil usullaridan samarali foydalanildi. Bu metodlar orqali belgilangan hududlarda turistik yuklamalarning haddan tashqari ortganligi, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik tizimlarga ko‘rsatayotgan ta‘sir darajasi ilmiy asosda baholandi.

**Tahlil va natijalar.** Overturizmni barvaqt aniqlash uchun uning mezon va indikatorlarini belgilash lozim. Avvalo, turistik zichlikni ko‘rsatuvchi bazaviy ko‘rsatkichlar muhim hisoblanadi: turistlar sonining mahalliy aholi soniga nisbati, turistlar sonining mazkur hudud maydoniga nisbati, mavsumiy konsentratsiya (eng yuqori va eng past oylik ko‘rsatkichlar nisbati) va turizm infratuzilmasiga tushayotgan yuklama (mehmonxona o‘rinlari bandligi va h.k.). Overturizm indeksini hisoblash uchun quyidagi formula taklif etiladi:

$$O = P + T + \frac{S}{1000} + V + R,$$

bu yerda  $O$  – umumiy overturizm indeksi,  $P$ – turistik populyatsiya zichligi (ma’lum davrdagi turistlar sonining aholi soniga nisbati),  $T$ – turistik vaqt zichligi (turistlarning o’rtacha qolish kunlari bilan hisoblangan zichlik),  $S$  – turistik makon zichligi (turistlar sonining maydonga nisbati),  $V$ – sayyohlarning sub’ektiv baholash ko’rsatkichi (overturizm haqidagi tasavvur),  $R$ – mahalliy aholining sub’ektiv baholash ko’rsatkichi. Formula tarkibidagi  $V$  va  $R$  qiymatlarini aniqlash uchun sotsiologik so’rovnomma usuli qo’llanilishi nazarda tutiladi. Bunda turistlardan muayyan joydagi gavjumlik haqidagi fikri, mahalliy aholidan esa turizmning ular turmush tarziga ta’siri haqidagi qoniqish darajasi so’raladi. Shuningdek, kompleks yondashuv orqali overturizm holatini aniqlashda biror ko’rsatkich keskin yomonlasha boshlasa (masalan, aholi noroziligi), shu yo’nalishga alohida e’tibor qaratish lozimligi ma’lum bo’ladi.

Taqdim etilgan uslubiyatni amaliy sinovdan o’tkazish maqsadida Samarqand viloyati misolida tahlil o’tkazildi. Samarqand viloyati aholisi 2023 yil holatiga 4,16 million kishini tashkil etadi. 2024 yil davomida viloyatga jami 7,2 million sayyoh tashrif buyurgan, shundan 2,5 millioni xorijiy sayyohlar, 4,7 millioni mamlakatning boshqa hududlaridan kelgan mahalliy sayyohlardir. Turistlarning o’rtacha bo’lish davomiyligi 3 kun atrofida bo’lganligi qayd etilgan [8]. Ushbu raqamlar asosida hisoblangan turistik zichlik ko’rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

2024 yilda Samarqand viloyatida turistik zichlik ko’rsatkichlari

Ko’rsatkichlar	Qiymati
Xorijiy sayyohlar soni, nafar	2 523 000
Mahalliy sayyohlar soni, nafar	4 715 000
Jami sayyohlar soni, nafar	7 238 000
Aholi soni soni, nafar	4 159 000
Turistlar/aholi nisbati	1,74 (174%)
Turistlarning o’rtacha bo’lish davomiyligi	3 kun
Yillik “turist-kun” (sayyohlik kunlari)	21 714 000
Kundagi o’rtacha turistlar soni, nafar soni, nafar	59 500
Kunlik turistlar zichligi (mahalliy aholiga nisbatan)	1,4%

Yuqoridagi ma’lumotlarga asosan, bir yil davomida Samarqand viloyatiga keluvchi sayyohlar soni aholi sonidan qariyb 1,7 barobarga ko’p. Kunlik o’rtacha turistlar soni 59,5 ming nafar atrofida bo’lib, bu aholi sonining 1,4 foiziga tengdir. Albatta, turistik oqim vaqtincha bo’lgani uchun yil davomida bu ko’rsatkich sezilarli farqlanadi – asosiy gavjumlik mavsumlarda kuzatiladi. Shu bilan birga, Samarqand shahrining tarixiy markazi kabi alohida joylarda zichlik yanada yuqori bo’lishi mumkin. Masalan, Navro’z bayrami yoki xalqaro festivallar paytida bir kunda Registon maydoniga tashriflar soni mahalliy imkoniyatlardan ancha oshishi mumkin. Samarqandda ochilgan yangi “Silk Road Samarkand” turizm majmuasi mintaqadagi turistik yuklamani ma’lum darajada shahar tashqarisiga yoyishga xizmat qilmoqda, bu esa tarixiy shahar markaziga tushadigan bosimni kamaytirishda ijobiy rol o’ynaydi. 2024 yil ma’lumotlari asosida taxminan overturizm indeksiga kiruvchi ob’ektiv ko’rsatkichlarni hisoblasak,  $P$  (aholiga nisbatan turistlar) 1,74,  $T$  (vaqt zichligi) taxminan 5,22 (o’rtacha 3 kun  $\times$  1,74),  $S$  (maydonga nisbat turistlar) esa viloyat maydoniga (16,77 ming km<sup>2</sup>) nisbatan 431 ni tashkil etadi. Biroq,  $V$  va  $R$  ko’rsatkichlari bo’yicha ma’lumot yo’qligi sababli to’liq indeksni hisoblash imkonsiz. Shuningdek, overturizm darajasi uchun umume’tirof etilgan chegara qiymat ham hozircha mavjud emas. Shunga qaramay, mazkur tahlil Samarqand viloyatida turizm sohasidagi yuklamani boshqarish qay darajada muhim ekanini ko’rsatadi. Turistlar oqimining haddan tashqari oshishi

mahalliy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi uchun, hozirdanoq tegishli chora-tadbirlar joriy etilishi lozim. Turistik ma'lumotlar va sig'im imkoniyatlari haqidagi dastlabki ma'lumotlar asosida maxsus indikatorlar hisoblanadi va overturizm indeksi hisoblab chiqiladi. Agar indeks belgilangan ostona qiymatdan ohsa, hududda overturizm xavfi borligi aniqlanadi va shunga muvofiq boshqaruv choralari ko'riladi; aks holda esa vaziyat doimiy monitoring qilib boriladi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi tahlil va ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonning mashhur turistik hududlarida overturizm xavfi haqiqatan ham mavjud va uni uzoqni ko'zlab boshqarish lozim. Samarqand misolida ko'rilganidek, sayyohlik oqimlarini muvofiq tarzda yo'naltirish, ularni vaqt va makon bo'yicha tarmoqlantirish (diversifikatsiya qilish) zarur. Overturizmning oldini olish uchun quyidagi choralar tavsiya etiladi:

- sayyohlik oqimini mavsumdan tashqari davrlarga yo'naltirish (masalan, festival va tadbirlarni off-sezon oylarga ko'chirish);

- turistlarni kamroq band bo'lgan manzillarga yo'naltirish uchun yangi yo'nalishlarni targ'ib qilish (muqobil marshrutlar yaratish);

- madaniy meros ob'ektlarida bir vaqtda bo'lishi mumkin bo'lgan tashrifchilar sonini cheklash va elektron bilet tizimini joriy etish, mehmonxona va yashash joylari sonini hududning sig'imiga mos ravishda rejalashtirish, xususiy turar joylarni (masalan, Airbnb-turarjoyi qisqa muddatga ijaraga olishning onlayn xizmati) litsenziyalash orqali nazoratga olish;

- mahalliy aholi bilan hamkorlikda turizmni rivojlantirish, ularning manfaatlarini hisobga olish va turizmdan tushadigan daromadlarni mahalliy infratuzilmani yaxshilashga yo'naltirish.

Turizm sohasida mazkur tadbirlarni samarali amalga oshirish aniq dalil va ko'rsatkichlarga asoslanishi lozim. Shu maqsadda, yuqorida taklif etilgan overturizm indeksini har yili hisoblab borish va doimiy monitoring qilish tavsiya etiladi. Indeks ma'lumotlari orqali qaysi hudud va qaysi ko'rsatkichlarda muammo borligi erta aniqlanadi va shu asosda tegishli choralar ko'riladi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekiston sharoitida turizm rivoji bilan bog'liq holda, overturizmni aniqlash va uning oldini olish strategiyasini hozirdan tayyorlash va joriy etish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. McKinsey & Company; World Travel & Tourism Council. *Coping with success: Managing overcrowding in tourism destinations.* – London: McKinsey, 2017. – 40 s. – Rejim dostupa: <https://www.mckinsey.com/industries/travel/our-insights/coping-with-success-managing-overcrowding-in-tourism-destinations>.

2. World Tourism Organization (UNWTO). *'Overtourism'? Understanding and Managing Urban Tourism Growth beyond Perceptions.* – Madrid: UNWTO, 2018. – 68 p.

3. First Venice and Barcelona: now anti-tourism marches spread across Europe // *The Guardian.* – 10.08.2017. – <https://www.theguardian.com/travel/2017/aug/10/anti-tourism-marches-spread-across-europe-venice-barcelona>.

4. Buitrago, E. M.; Yñiguez, R. *Measuring Overtourism: A Necessary Tool for Landscape Planning // Land.* – 2021. – Vol. 10, No. 9. – P. 889. – DOI: 10.3390/land10090889.

5. Koens, K.; Postma, A.; Papp, B. *Is Overtourism Overused? Understanding the Impact of Tourism in a City Context // Sustainability.* – 2018. – Vol. 10, No. 12. – P. 4384. – DOI: 10.3390/su10124384.

6. Sustainable Travel International. *What Is Overtourism and Why Is It a Problem?* [Elektron resurs]. – 2024. – <https://sustainabletravel.org/what-is-overtourism>.

7. Weber, F.; Reitschmidt, C.; Kunz, V. *Developing indicators for overtourism in culturally and naturally sensitive destinations.* – Lucerne: HSLU, 2019. – 50 p.

8. Ismoilov, B.R.; Abdullaeva, M.K. *Turizm sohasida geoaqlli tahlil texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari // Innovatsion rivojlanish jurnali.* – 2023. – №2. – B. 75–82. – <https://ijird.uz/storage/issues/2023-2/11.pdf>.

<p><b>Х.И.Турдибеков</b></p> <p><b>Совершенствование методики оценки овертуризма в условиях Узбекистана</b></p> <p><b>Аннотация:</b> В статье анализируются теоретические основы и мировой опыт понятия «перетуризм» — перегрузка туристских потоков в условиях Узбекистана. В работе предлагается система показателей для оценки баланса между нормативным потенциалом туристических дестинаций и потребностями местных жителей и туристов в контексте резкого роста, наблюдаемого в сфере туризма в Узбекистане в последние годы, особенно в случае города Самарканда. В рамках исследования была разработана формула для расчета индекса чрезмерного туризма, которая включает в себя показатели плотности туристов и удовлетворенности с точки зрения туристов и жителей.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> чрезмерный туризм, туристическая емкость, индекс туризма, туристическая инфраструктура, плотность туристов, управление туризмом, устойчивый туризм</p>	<p><b>Kh.I.Turdibekov</b></p> <p><b>Improving the methodology for evaluating overtourism in the conditions of Uzbekistan</b></p> <p><b>Annotation:</b> This article analyzes the theoretical foundations and world experience of the concept of overtourism - overload of tourism flows in the conditions of Uzbekistan. The work proposes a system of indicators to assess the balance between the normative capacity of tourism destinations and the needs of the local population and tourists in the context of the sharp growth observed in recent years in the tourism sector in Uzbekistan, especially in the case of the city of Samarkand. As part of the study, a formula for calculating the overtourism index was developed, which includes indicators of tourist density and satisfaction from the point of view of tourists and residents.</p> <p><b>Keywords:</b> overtourism, tourist capacity, tourism index, tourist infrastructure, tourist density, tourism management, sustainable tourism</p>
--	---

**Aziza Yusufbekovna Talibova** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti katta o‘qituvchisi

### **O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSKURSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida ekskursiya xizmatlarini rivojlantirish masalalari tahliliga bag‘ishlangan. Raqamli texnologiyalarning ekskursiya xizmatlariga ta’siri, zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar va ularning samaradorligi o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va rivojlanish istiqbollari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Raqamli iqtisodiyot, ekskursiya xizmatlari, mehmonxona sohasi, raqamlashtirish, elektron tijorat, onlayn xizmatlar.

**Kirish.** Zamonaviy dunyoda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi turli sohalarda ulkan o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Xususan, turizm va ekskursiya xizmatlari raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq holda jadal rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida ekskursiya xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni innovatsion texnologiyalar, mobil ilovalar, sun‘iy intellekt va virtual reallik (VR) yechimlari orqali amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda ko‘plab sayyohlik yo‘nalishlari ekskursiyalarni onlayn bron qilish, virtual turlar va interaktiv xaritalar orqali taklif qilmoqda. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda sun‘iy intellekt bilan ishlovchi virtual gidlar va avtomatlashtirilgan ekskursiya tizimlari keng joriy etilgan. Xitoy va Janubiy Koreya kabi texnologik jihatdan ilg‘or davlatlar esa sayyohlar uchun raqamli identifikatsiya tizimlarini va big data asosidagi turistik tahlillarni qo‘llamoqda.

Shuningdek, COVID-19 pandemiyasi davrida ekskursiya xizmatlarining raqamlashtirilishi yanada tezlashdi. Ko‘plab muzeylar, tarixiy obidalar va diqqatga sazovor joylar virtual ekskursiyalarni joriy qildi. Masalan, Luvr muzeyi, Britaniya muzeyi, Vatikan muzeyi kabi yirik diqqatga sazovor maskanlar o‘z ekskursiyalarini onlayn rejimga o‘tkazdi. Bu esa sayohatchilarga masofadan turib madaniy meros bilan tanishish imkonini berdi. Shu bois, raqamli texnologiyalarni ekskursiya xizmatlariga tatbiq etish bugungi kunda global miqyosdagi eng dolzarb tendensiyalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston hukumati ham turizm va ekskursiya xizmatlarini raqamlashtirish bo‘yicha qator

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

14.03.2025 йилда теришга берилди. 25.03.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 13,87. Адади 100 нусха. Буюртма № 0012А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.